



ARTICLE INFO

Received: 15th January 2023

Accepted: 25th January 2023

Online: 26th January 2023

KEY WORDS

Oilaviy zo'ravonlik, gender zo'ravonlik, patriarchal stereotip, jismoniy tazyiq, moliyaviy zo'ravonlik, OAV, ijtimoiy tarmoqlar.

OILAVIY ZO'RAVONLIK: SABAB VA OMILLAR

Malikova Go'zal Tursunpo'latovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

guzalmalikova91@gmail.com

tel: 93-083-70-07

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575169>

ABSTRACT

Bugun kishilik jamiyatida yangi bir tushuncha – oilaviy zo'ravonlik atamasi kirib ulgurdi. Oilaviy zo'ravonlik - o'z ko'lamiga ko'ra global muammo. Mazkur maqolada mana shu atama kelib chiqishi va bu tur zo'ravonlikka sabab bo'lувчи omillar hamda ularning o'zbek OAVda yoritilish jarayoni xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, yetakchi xorijiy tashkilotlarning O'zbekistonidagi oilaviy zo'ravonliklar bo'yicha bergen hisobotlari, statistic ma'lumotlari keltiriladi.

Sir emaski, bugun yon-atrofimiz, mahallamiz, umuman, jamiyatimizda oilaviy zo'ravonliklarning qurbanlari bisyor. Hatto o'tgan – 2022-yilda o'zbek OAVda, turli ijtimoiy tarmoqlarda kun-kunora "aka ukasini pichoqlabdi", "er g'azabda xotini urib o'ldirdi" "ona o'z bolasini kaltakladi", "qaynona kelinini g'isht bilan urib o'ldirdi", "kelin qaynonasini urdi" qabilidagi talaygina xabarlar tarqaldi. Bunday xabarlarni o'qigan har bir kishining xayolidan "avvalgi davrlarga qaraganda insonlar madaniyatli bo'lib bormoqda, lekin oilaviy zo'ravonliklarning kamayishi o'rniga nega ular yanada avj olmoqda?" degan o'y o'tishi aniq.

Darhaqiqat, ayni paytda oilaviy zo'ravonlik kundalik hayotimizga yangi bir atama sifatida kirib keldi. Bu tur zo'ravonliklar kam ta'minlangan oilalar tugul o'ziga to'q xonadan egalarini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Xo'sh, oilaviy zo'ravonlik o'zi nima? Unga sabab bo'lувчи omillar qaysilar?

Psiyologlarning fikriga ko'ra, **oiladagi zo'ravonlik bu er-xotin yoki boshqa yaqin munosabatdagi kishilardan birining ikkinchisiga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'ravonlik ko'rsatishidir**. Odatda, bu turdagи zo'ravonlik ostida bir tomonning oiladagi boshqa a'zolar hayoti ustidan nazoratni ushlab turishga bo'lgan intilishi yotadi. Oilaviy zo'ravonlik qurbanli ko'p hollarda ayollar yoki yosh bolalar bo'lsa-da, ammo bugungi kunda erkaklar hamda qariyalar orasida ham jabrlanuvchilar yo'q emas. Deylik, er-xotin urushi, ruhiy azoblash, kamsitish, haqoratlash, moddiy va ma'naviy salbiy ta'sir o'tkazish, oila boshlig'i ayolini o'qishi yo ishiga mutlaqo qarshilik qilishi, pul bermaslik, jinsiy zo'ravonlik – bularning bari er tomonidan ayoliga nisbatan zo'ravonlik bo'lsa, turmush o'rtog'i yo qaynonasi zulmlarining alamin farzandlaridan olishga intilish (jismoniy og'ir mehnatlarni bajarishga buyurish, kaltaklash, do'q-po'pisa qilib urishish) ro'y beradigan jarayon endi bolalarga nisbatan zo'ravonlikdir.



Jahon sog'lqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi. Turmush qurban ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganlari haqida ma'lum qiladi. Ayollar o'limining 38 foizi ularning turmush o'rtog'i tomonidan amalga oshiriladi va zo'ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so'zlaydi.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi "Human Rights Watch" xalqaro nodavlat tashkiloti o'tgan yilgi hisobotida O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik masalasi hali yetarlicha inobatga oilnmagani, BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasi 2022-yilning fevral oyidagi mamlakatimiz bo'yicha o'z xulosalarida "ayollarga nisbatan gender zo'ravonlik holatlarinig ko'pligi"ni ta'kidlaganidan xavotirda ekanini qayd etib, hukumatni oiladagi zo'ravonliklarga sababchi bo'layotgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, aybdorlarni tergov qilish va ularni jazosiz bee'tibor qoldirmaslik, jabrlanuvchilarni esa himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish haqida yozdi¹.

UNISEF esa 2022-yil 21-iyundagi matbuot xabarida hukumatni O'zbekistonda ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni to'xtatishga chaqirdi². Tashkilot O'zbekistonda ko'pgina ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan, ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik aks ettirilgan videoroliklardan so'ng mamlakatda ayrim hodisalar, jumladan, go'daklar bilan bog'liq holatlar jamoat oldida va tomoshabinlar ishtirokida sodir bo'layotgani, bu kabi holatlar odatiyga aylanib borayotgani xususida o'z xavotirini bildirdi. Shuningdek, xabarda UNICEFning O'zbekistondagi vakili Munir Mammadzodaning quyidagi fikrlari keltiriladi: "Ayollar va bolalar, ayniqsa, qizlar har kuni zo'ravonlikka duchor bo'lishadi, afsuski, bunga maqbul, normal, joiz va "oilaviy masala" sifatida qaraladi. Zo'ravonlik holatlarining oldini olish mumkin. Zo'ravonlikka barham berishda har bir insonning o'rni bor; odamlarning zo'ravonlikka munosabatini o'zgartirish, jazosiz qolishni to'xtatish, me'yorlar va ijobiy amaliyotlarni targ'ib qilish va jabrlanganlarga malakali yordam ko'rsatish kerak"³.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Shundan beri O'zbekiston BMT qoshidagi Inson huquqlari Qo'mitasiga ushbu Konvensiyada ko'tarilgan masalalarni amalga oshirish yuzasidan hisobot beradi. Biroq hisobot doirasida ham Inson huquqlari qo'mitasi O'zbekistonda ayollarning notenglikka yuz tutishi, patriarchal stereotipning mavjudligi hamda ko'plab ayollar oilada zo'ravonlik qurboni bo'lishini ta'kidlab, hukumatdan bularga qarshi choralar ko'rishini so'raydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan **"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"** O'zbekiston

¹ World report 2023. Women's right. - <https://www.hrw.org/world-report/2023/country-chapters/uzbekistan#d91ede>

² UNICEF calls for an end to violence against Women and Children in Uzbekistan. Press release. Tashkent, 21 june 2022. - <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/unicef-calls-to-end-violence-against-children>

³ UNICEF calls for an end to violence against Women and Children in Uzbekistan. Press release. Tashkent, 21 june 2022. - <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/unicef-calls-to-end-violence-against-children>



Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangan. Qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, me'yoriy hujjatning asosiy maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat⁴. Biroq yurtimizda mazkur qonun qabul qilinganiga 4 yil to'lganiga qaramay, hanuz OAVda dilni xira tortiradigan turli oilaviy zo'ravonliklar aks etgan xabar, yangilik yoinki tahliliy-tanqidiy maqolalarga ko'zimiz tushadi. Ulardan biri – **daryo.uz** da 2022-yilning 22-noyabrida e'lon qilingan "*Jizzaxda er xotinini urib o'ldirib qo'ydi*" sarlavhali xabar. Mazkur xabarda yozilishicha, Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida yashovchi er "Nega meni haqorat qilasan?" bahonasida shar'iy nikohidagi 39 yoshli xotinini turli joylariga urib, tan jarohati yetkazadi, oqibatda ayol olgan jarohatlar natijasida voqeа joyida halok bo'ladi⁵. Xuddi shunga o'xhash holatlar yana bir nech onlayn nashrlar, jumladan, **gazeta.uz** da – "Sirdaryoda erkak janjal oqibatida xotinini urib o'ldirib qo'ydi"⁶, **qalampir.uz** da – "Andijonda erkak xotinini obdasta bilan urib o'ldirdi"⁷, **aniq.uz** da "Qashqadaryoda er xotinini urib o'ldirdi"⁸, **qalampir.uz** da "Farg'onada erkak xotinini bolta bilan urib o'ldirdi"⁹ kabi sarlavhalar ostida chop etildi. Deyarli barcha xabardagi "qahramon"lar yo mast holatda bo'lgan yo arzimas maishiy muammolar sabab g'azabini tiyolmay, ayolining qotiliga aylangan.

Oilaviy zo'ravonlik (boshqachasiga, maishiy zo'ravonlik) juda ko'p turli shakllarni o'z ichiga olgan keng atamadir, shuning uchun oilaviy zo'ravonlik nima ekanligini aniq aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. AQSh Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy zo'ravonlik **hissiy, og'zaki, jismoniy, jinsiy, psixologik va moliyaviy zo'ravonlikni** o'z ichiga olishi mumkin. Bu har qanday oila a'zolari, masalan, turmush o'rtoqlar, birgalikda yashovchilar, ota-onalar va bolalar, vasiylar va bolalar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin¹⁰. Odamlar ko'pincha rashk, o'zini past baholash, psixologik kasalliklar, g'azab bilan bog'liq muammolar yoki giyohvandlik, spirtli ichimliklar bilan bog'liq muammolar tufayli o'z munosabatlarida kuch va

⁴ "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2019. – <https://lex.uz/docs/-4494849>

⁵ Jizzaxda er xotinini urib o'ldirib qo'ydi. – Daryo.uz. 22.11.2022.

<https://daryo.uz/2022/11/22/jizzaxda-er-xotinini-urib-oldirib-qoydi/>

⁶ Sirdaryoda erkak janjal oqibatida xotini urib o'ldirib qo'ydi. Gazeta.uz. 26.10.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/26/murder/>

⁷ Andijonda erkak xotinini obdasta bilan urib o'ldirdi. 09.12.2022. Qalampir.uz. <https://qalampir.uz/uz/news/andizhonda-erkak-khotinini-obdasta-bilan-urib-uldirdi-73536>

⁸ Qashqadaryoda er xotinini urib o'ldirdi. 22.11.2021. Aniq.uz. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/qashqadaryoda-er-xotinini-urib-uldirdi>

⁹ Farg'onada erkak xotinini bolta bilan urib o'ldirdi. Qalampir.uz. 20.04.2022. <https://qalampir.uz/uz/news/fargonada-erkak-khotinini-bolta-bilan-urib-uldirdi-59870>

¹⁰ What Is Family Violence? Statistics, Types, and Prevention. – Online master of social work. 13.09.2021. <https://onlinemasters.ohio.edu/blog/family-violence/>



nazoratni amalgalashish uchun oilaviy zo'ravonlikdan foydalanadilar. Biroq zo'ravon qanday muammolarga duch kelishidan qat'i nazar, zo'ravonlik hech qachon oqlanmaydi.

Amerikalik huquqshunoslarning fikriga ko'ra, oilaviy zo'ravonlik kichik yoki o'ta og'ir jinoyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Xuddi yuqorida misollarda guvohi bo'lganimizdek. Ushbu jinoyatlar alohida hodisalar sifatida sodir bo'lishi yoki vaqt o'tishi bilan takrorlanishi mumkin. Natijada oilaviy zo'ravonlikning bu turi shaxsning qisqa va uzoq muddatli xatti-harakatlariga hamda bolalarning jismoniy, hissiy va ruhiy rivojlanishiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi¹¹.

Har bir oilaviy zo'ravonlikning o'ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib keluvchi omillar qator umumiyligka ega. O'zbekiston sharoitida oilaviy zo'ravonlikni xarakterlovchi quyidagi asosiy xususiyatlar farqlanadi:

- a) zo'ravonning jismonan kuchliligi (ko'pincha erkakning ayolga, ota-onaning farzandga nisbatan zo'ravonligi);
- b) zo'ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko'pchilik bo'lib sodir etilishi (uchinch shaxslarning aralashuvi);
- v) jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg'iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg'izlik);
- g) jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish mexanizmining zaifligi;
- d) sabablar emas, vaziyatlar bilan shug'ullanish (vaqtinchalik yarashtirib qo'yish, muammoni lokal hal qilish, tub sabablarni o'rganmaslik)¹².

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-avgustda qabul qilingan "**Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida**"gi Qonunida zo'ravonlikning 4 turi – jismoniy, jinsiy, ruhiy va iqtisodiy zo'ravonlik keltirilgan¹³. Biroq unda oilaviy-maishiy zo'ravonlik degan tushuncha berilmagan. Afsuski, jismoniy zo'ravonlikka uchragan shaxslarda javobgarlik masalasi ham "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasi yo'qligi, javobgarlik belgilanmaganligi tufayli Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda tahqirlash, tuhmat qilish yoki yengil tan jarohati yetkazish moddasi bilan kvalifikatsiya qilinib, zo'ravon jarima to'lash bilan cheklanadi yoki himoya orderi bilan ayolidan 30 kunga uzoqlashtiriladi. Jazoning yengilligi o'z navbatida zo'ravonlarning emin-erkin nojo'ya harakatlarda davom etishiga asos bo'ladi. Sababi ular bu qilmishlari uchun u qadar og'ir javobgarlikka tortilmasliklarini biladilar. Ko'p hollarda jamiyatimizda yana bir holatga duch kelamiz: zo'ravonni oqlashga intilish va jabrlanuvchining bo'yniga barcha aybni yuklash. Natijada mahalla-ko'yning gap-so'zlari yoinki asossiz ayblovlardan hadiksiraydigan jabrlanuvchi (asosan ayollar) oilaviy nizolar, kelishmovchiliklarni jamoatchilikka oshkor etmaydi. Berkitishlar oxir-oqibat jinoyatlarga yo'l ochib beradi.

¹¹ What Is Family Violence? Statistics, Types, and Prevention. – Online master of social work. 13.09.2021. <https://onlinemasters.ohio.edu/blog/family-violence/>

¹² O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonun loyihasi ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Xabar.uz. 02.08.2018. <https://xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlikka-qarshi>

¹³ "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4494709>



Yuqoridagi holatlarning oldini olishda mahalla, Respublika reabilitatsiya va shaxslar adaptatsiyasi markazi, Bosh prokuratura, IIV, Xotin-qizlar qo'mitasi kabi tashkilotlar bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalarining ham o'rni alohida. An'anaviy jurnalistikadan farqli o'laroq, onlayn nashrlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi mavzular keng yoritilayotgani bor gap. Sababi bugun oilaviy zo'ravonlikning guvohi bo'layotgan istalgan fuqaro mobil qurilmalar orqali ularni to'g'ridan-to'g'ri suratga yoki tasvirga olish imkoniga ega. O'z navbatida, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqata oladi ham. To'g'ri, ularning ko'pchiligidagi faqat tanganing bir tomonini ko'rib, subyektiv baho berish yuzaga kelishi mumkin. Biroq mana shu jarayonda jamoatchilikdan yashirib kelinayotgan axborotlar yuzaga chiqadi va eng asosiyasi, jurnalistlar, blogerlar tomonidan tahliliy, keng ko'lAMDAGI axborot yig'ilib, ommaga taqdim etiladi. Sir emaski, natijada ko'pgina yashirin bo'lib kelayotgan zo'ravonliklarga mas'ul mutasaddilarning e'tibori qaratilishiga va qonuniy jazo ko'rilihiga erishiladi. So'zimizning isbotini quyidagi misollar orqali ko'rsak.

2020-yilning avgust oyida ijtimoiy tarmoqlarda samarqandlik kelinning eri tomonidan ayovsiz kaltaklangan videosi tarqaldi. O'zbek segmentidagi barcha onlayn nashrlar bu haqida yozishni boshladi va mushtumzo'r erving huquqni himoya qilish organlari xodimlari tomonidan qo'lga olinib, sud qilinishi-yu jabrlanuvchiga ko'rsatilgan moddiy-ma'naviy ko'makkacha bari yoritib borildi. Yoki 2020-yilning oktabr oyida xotinini do'pposlab, unga bolasingin axlatini yedirgan toshkentlik erkak butun jamoatchilikni oyoqqa turg'izdi. Mazkur voqe'likda ham zo'ravonga qonun doirasida chora ko'riliши, ayolga himoya orderi topshirilib, farzandlari bilan vaqtinchalik reabilitatsiya markaziga yotqizilishigacha bo'lgan jarayon internet nashrlari va veb-saytlar orqali muntazam yoritib borildi. Bu kabi holatlar so'nggi ikki yil davomida respublika bo'ylab keng kuzatildi va quvonarlisi shundaki, nosog'lom oila muhitida istiqomat qilayotgan ko'pgina kelinlar, bolalar, qariyalarning himoya qilinishiga aynan OAV orqali erishildi. Biroq ayrim telekanallarimiz, jumladan "Ochiqchasiga gaplashamiz", "Mahallada duv-duv gap" kabi teledasturlarda dastur mehmoni bo'lmish zo'ravonlikning turli ko'rinishlariga duch kelgan ayollar, xotin-qizlarning o'zi studiyadagi mehmonlar tomonidan ayblanadi, uyaltiriladi, nasihat qilinadi. Holbuki, u muammosiga yechim izlab kelgan.

Demak, jamiyatimizda yildan yilga keng tus olib borayotgan oilaviy zo'ravonliklarga yon atrofdagi har bir fuqaro, o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, qator mutasaddi tashkilotlar bilan bir qatorda OAV vakillaridan ham faol tashabbus va o'tkir tahliliy-taqnidiy, mulohazali maqolalar, chiqishlar talab etiladi. Afsuski, bugun internet saytlaridagi aksar jurnalistik materiallar quruq xabar tarzida bo'lib qolgan.

Yuqoridagilardan ko'rini turibdiki, muammo ancha jiddiy, bu borada qilinishi kerak bo'lgan amaliy ishlar talaygina. Avvalo, oilaviy zo'ravonliklarga barham beruvchi yoki ularni aniq jinoiy javobgarlikka tortuvchi alohida huquqiy-me'yoriy hujjatga ehtiyojimiz bor. Shuningdek, jamiyatimizda xotin-qizlar, ayollarning obro'sini yanada oshirish, gender tengligini ta'minlash, zo'ravonlikka uchraganda qanday tartibda harakatlanish (kimga murojaat qilish, qo'rmaslik, o'z huquqini talab etish) borasida targ'ibot-tashviqot ishlarinisamarali yo'lga qo'yish lozim. Va eng muhimi, OAVni bu mavzu bo'yicha davomiy materiallar, mutaxassislar, jabrdiydalar bilan yanada ko'proq suhbatlar, davra suhbatlari tayyorlashini rag'batlantirishni yo'lga qo'yish zarur.



References:

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2019. – <https://lex.uz/docs/-4494849>
2. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4494709>
3. World report 2023. Women's right. – <https://www.hrw.org/world-report/2023/country-chapters/uzbekistan#d91ede>
4. UNICEF calls for an end to violence against Women and Children in Uzbekistan. Press release. Tashkent, 21 june 2022. – <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/unicef-calls-to-end-violence-against-children>
5. Jizzaxda er xotinini urib o'ldirib qo'ydi. – Daryo.uz. 22.11.2022. <https://daryo.uz/2022/11/22/jizzaxda-er-xotinini-urib-oldirib-qoydi/>
6. Sirdaryoda erkak janjal oqibatida xotini urib o'ldirib qo'ydi. Gazeta.uz. 26.10.2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/26/murder/>
7. Andijonda erkak xotinini obdasta bilan urib o'ldirdi. 09.12.2022. Qalampir.uz. <https://qalampir.uz/uz/news/andizhonda-erkak-khotinini-obdasta-bilan-urib-uldirdi-73536>
8. Qashqadaryoda er xotinini urib o'ldirdi. 22.11.2021. Aniq.uz. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/qashqadaryoda-er-xotinini-urib-uldirdi>
9. Farg'onada erkak xotinini bolta bilan urib o'ldirdi. Qalampir.uz. 20.04.2022. <https://qalampir.uz/uz/news/fargonada-erkak-khotinini-bolta-bilan-urib-uldirdi-59870>
10. What Is Family Violence? Statistics, Types, and Prevention. – Online master of social work. 13.09.2021. <https://onlinemasters.ohio.edu/blog/family-violence/>
11. O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonun loyihasi ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Xabar.uz. 02.08.2018. [https://xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlikka-qarshi.](https://xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlikka-qarshi)